

**I-qism: Har bir topshiriq 0,9 balldan baholanadi**

**1. Bizning qarorimiz shu // hasharda barchamiz faol ishtirok etamiz.**

Ushbu qo'shma gap qismlari orasiga qaysi tinish belgisi qo'yiladi?

- A) ikki nuqta
- B) vergul
- C) nuqtali vergul
- D) tire

**2. Qaysi gapda ergash gap bosh gapdan oldin kelgan?**

- A) Shuni doimo yodda tutish kerakki, nodon kishining gapi ko'p bo'ladi.
- B) Saxiylikni odat qilgan bo'lsa kim, Qo'lidan davlati ketmasin uning.
- C) Bobolardan qolgan noyob bu tortiq, Toki avlodlarga yetolsin omon.
- D) Kitob mening do'stim, chunki u – bilim manbai.

**3. oshig'i olchi** iborasiga antonim iborani toping.

- A) suv tekin
- B) dili pora
- C) kosasi oqarmagan
- D) do'ppisi yarimta

**4. Berilgan birliklarning qaysi birida ko'chma ma'noli so'z mavjud emas?**

- A) varrakning dumi
- B) g'orning og'zi
- C) tog' cho'qqisi
- D) daryo yoqasi

**5. Ilgari salbiylik bo'yog'iga ega bo'lgan so'zlar davr taqozosiga ko'ra ijobiy bo'yoq kasb etayotgan so'zlarni aniqlang.**

- A) dasturchi, vazir
- B) biznesmen, fermer
- C) viloyat, tuman
- D) kapital, kolxoz

**6. Navoiyning qaysi asarida insonni ulug'laydigan imon, karam, adab, qanoat, vafo, rostlik, ilm kabi fazilatlar haqida alohida fikrlar bayon qilingan?**

- A) "Hayrat ul-abror"
- B) "Lison ut-tayr"
- C) "Muhokamat ul-lug'atayn"
- D) "Saddi Iskandariy"

**7. G'irotda qaysi doston qahramonining doimiy yo'ldoshi hisoblanadi?**

- A) Ravshan
- B) Alpomish
- C) Go'ro'g'li
- D) Kuntug'mish

**8. Ko'ngli tilagan murodig'a yetsa kishi, Yo barcha murodlarni tark etsa kishi.**

*Bu ikki ish muyassar bo'lmasa olamda, Boshini olib bir sorig'a ketsa kishi.*

Ushbu ruboiydagi raviyni aniqlang.

- A) i harfi
- B) t harfi
- C) a harfi
- D) s harfi

**9. Bu yo'llardan borurman, qadim**

*Bitiktoshlar chiqar qoshimga.*

*Ular so'zin ko'chiraman jim*

*Yuragimning bujur toshiga,*

*Ey, dardimga darmonim, Vatan!*

Ushbu she'riy parchada ajratib ko'rsatilgan so'zning sintaktik vazifasini aniqlang.

- A) payt holi
- B) sifatlovchi aniqlovchi
- C) o'rin holi
- D) vositali to'ldiruvchi

**10. Gapdagi ko'p nuqta o'rniga mazmun va grammatik jihatdan mos keluvchi yordamchi so'zni aniqlang.**

*U ilonni aldagani uchun, ... unga dunyodagi eng tansiq taom insonniki emas, qurbaqaning go'shti ekanini aytgani uchun ta'qibga uchragan emish.*

- A) chunki
- B) balki
- C) ya'ni
- D) agar



**2-qism: Har bir topshiriq 1,5 balldan baholanadi**

**11.** Qaysi gapda barcha zamon shakllari o'z ma'nosida ishlatilgan?

- A) – Yur, ketdik. Qorning to'qmi? – dedi Habibulla.
- B) Men ertaga ketyapman, Farhod.
- C) Shunda sizni azob emas, rohat kutadi.
- D) Shu, Boboqul bilan Mamat polvon juda lanj ekan, nima dedingiz, Bo'ri polvon?

**12.** Quyidagi gaplardan qaysi birida yordamchi so'z turkumining barcha turi ishtirok etgan?

- A) Ey farzand, aqlli, farosatli va ilm-u hunarli kishilar bilan do'st bo'l.
- B) Mehmonlar osh-suv taraddudiga yo'l qo'ymasdan, sut-qatiq bilan quruq choy ichib, darhol o'tirgan joylariga uzandilar va aravada urinib kelganlari uchun uzanar-uzanmas uyquga ketdilar.
- C) Ma'naviyat insonga ona suti va ota namunasi, ajdodlar o'giti bilan singadi.
- D) Polvonning qo'li kuch bilan o'ziga tortar, ammo bir qarich ham oldinga siljitolmasdi.

**13.** Har bir pok axloqli, ilohsevar shaxs komillikka intilishi va bu yo'lda nasiba olishi mumkin.

Yuqoridagi gapda qaysi gap bo'lak(lar)i uyushgan?

- A) aniqlovchi
- B) ega, aniqlovchi
- C) ega, kesim
- D) aniqlovchi, kesim

**14.** Qaysi gapda nisbat qo'shimchasini olgan fe'l yasama otga tobelangan?

- A) O'g'lining muvaffaqiyatidan faxrlangan otaning shodligi cheksiz edi.
- B) Uzoqdan ko'ringan qumloqlar sahro bag'rida yastanib yotar edi.
- C) Bu kishi o'sha tunda o'zi bilan suhbatlashgan odam ekan.
- D) Kechaga taklif etilgan shoirlar orasidan uni qidirdi, ammo topolmadi.

**15.** "Alp Er To'nga" marsiyasi qaysi asar orqali bizgacha yetib kelgan?

- A) "Devonu lug'ot it-turk"
- B) "Qissasi Rabg'uziy"
- C) "Qutadg'u bilik"
- D) "Hayrat ul-abror"

**16.** Qaysi asarda jaholat, ilmsizlik, tarbiyasizlikka qarshi ma'rifat ulug'lanadi?

- A) "O'tkan kunlar"
- B) "Padarkush"
- C) "Qorako'z Majnun"
- D) "Hayotga muhabbat"

**17.** *Bo'yung sarv-u sanubartek, beling qil,*

*Vafo qilg'on kishilarga vafo qil. (Xorazmiy)*

Ushbu baytda qanday she'riy san'atlar qo'llangan?

- A) tajnis, tashbeh, tanosub
- B) tazod, tajnis, tanosub
- C) talmeh, tashbeh, tajnis
- D) tazod, talmeh, tanosub

**18.** *Ayniqsa, har bir odam o'zining oqil, obro'-e'tiborli, iste'dodli, sadoqatli do'stlari – safdoshlari bilan faxrlanadi, ammo do'stlik mezoni faqat shular bilan o'lchanmaydi.*

Ushbu gap tarkibida ajratib ko'rsatilgan so'z gapning qaysi bo'lagiga tobelangan?

- A) sifatlovchi aniqlovchi
- B) qaratqich aniqlovchi
- C) vositasiz to'ldiruvchi
- D) vositali to'ldiruvchi

**19.** *Ey Navoiy, eldan bir chaqa ham tama qilma, aksincha, o'zing elga bersang, buni "karam" deydilar.*

Ushbu gapda ishtirok etgan gap bo'laklari bilan aloqaga kirishmaydigan so'zlarni aniqlang.

- A) ey Navoiy, karam
- B) tama qilma, deydilar
- C) ey Navoiy, aksincha
- D) ey, aksincha, karam

**20.** Qaysi gapda ko'makchi fe'l ish-harakatning davomiyligini bildirib kelgan?

- A) Qo'qonga nonushta mahalida kirib keldik.
- B) Mo'ysafid gullarni shiyponga qo'yib, mehmonlar bilan ko'risha ketdi.
- C) Indamay g'ishtlarni ustma-ust taxlay boshladi.
- D) Yodgor o'z yonimda. Ba'zan Mehrixonlar oilasiga ham borib-kelib turadi.



**3-qism: Har bir topshiriq 2,6 balldan baholanadi**

**21.** Imloviy jihatdan to'g'ri yozilgan so'zlar qatorini aniqlang.

- A) mutaxasis, qutulmoq, tomosha
- B) taqiqlamoq, xayol, qat'i nazar
- C) muolija, mobodo, tamoman
- D) asqotmoq, o'g'irlamoq, ta'ma qilmoq

**22.** Qaysi javobdagi gaplarda tire tinish belgisi o'zaro bir xil punktuatsion qoida asosida qo'yilgan?

- A) Nabiram – Sayyora shu yerda tarbiyalanyapti.  
Gullar, daraxtlar, bog'lar – barchasi bahor nafasini his qilmoqda.
- B) Yurting tinch – sen tinch.  
Turnalar arg'imchog'i g'ira-shira osmon ortiga – bulutlar bag'riga singiydi.
- C) Mehnati halol baholansa, yerning sohibi – dehqonning hech kimdan kami bo'lmaydi.  
Xalqaro savdo yo'li – Buyuk ipak yo'li Temur va Temuriylar davrida juda serqatnov bo'lgan.
- D) Yaxshi o'g'il – el obro'si, yaxshi qiz – uy obro'si.  
Qor yog'di – don yog'di.

**23.** *Vatanning kun sayin obod bo'layotgani, yangi yo'llar, muhtasham inshootlar barpo etilayotgani yurtdoshlarimiz qalbiga faxr-iftixor baxsh etmoqda.*

- Ushbu gap haqidagi to'g'ri hukmni toping.
- A) Qaratqich aniqlovchilarning barchasi to'ldiruvchiga tobelangan.
  - B) Barcha uyushiq bo'laklarning sifatlovchi aniqlovchisi mavjud.
  - C) Sodda va qo'shma kesimlar mavjud.
  - D) Ega va qaratqich aniqlovchining uyushib kelishi kuzatiladi.

**24.** Quyida berilgan so'zlarni ma'nolari bilan birlashtiring.

<ul style="list-style-type: none"><li>1) yog'iy;</li><li>2) barter;</li><li>3) murshid;</li><li>4) abzal;</li><li>5) kungura.</li></ul>	<ul style="list-style-type: none"><li>a) pul mablag'lari ishtirokisiz bevosita tovarga tovar ayirboshlash va shu haqdagi shartnoma;</li><li>b) ot-ulovlarni minish yoki aravaga qo'shish uchun zarur bo'ladigan asboblar majmuasi;</li><li>d) qimmatbaho qog'ozlar va har xil mollar bilan savdo-sotiq qiladigan yirik savdo muassasasi;</li><li>e) pir yoki eshonga qo'l berib, so'fiylik yo'liga kirgan shaxs;</li><li>f) yaxshi, a'lo, ortiq;</li><li>g) tariqat odoblaridan saboq beruvchi pir; shayx va ustoz.</li><li>h) qal'a devorlari yoki imoratlar aylanisiga tishga o'xshatib ishlangan me'moriy bezak;</li><li>i) dushman, g'anim.</li></ul>
-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------	-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------

- A) 1-i, 2-a, 3-g, 4-b, 5-h
- B) 1-e, 2-d, 3-g, 4-f, 5-d
- C) 1-i, 2-a, 3-e, 4-f, 5-b
- D) 1-g, 2-d, 3-e, 4-b, 5-f



**25.** Berilgan gaplar va ularda ishtirok etgan fe'l shakllari to'g'ri moslashtirilgan javobni aniqlang.

1. Hasanali bekning yechinib yotishini kutib turardi, chunki uni yotqizib, yoqilgan shamni o'zi bilan narigi hujraga olib chiqmoqchi edi	a) ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasi; b) qo'shma fe'l; d) nisbat qo'shimchasini olgan fe'l; e) harakat nomi shaklidagi fe'l; f) sifatdosh shaklidagi fe'l; g) ravishdosh shaklidagi fe'l.
2. Yomg'irdan keyin osmonda paydo bo'ladigan kamalak jahondagi jamiki ranglarni yettita ipga tortib turganga o'xshaydi.	

- A) 1-a, b, d, e, f, g; 2-a, b, f  
B) 1-a, d, e, f, g; 2-a, b, f, g  
C) 1-a, d, e, g; 2-a, f, g  
D) 1-b, d, e, f, g; 2-b, g, f

**26.** Ham qaratqich aniqlovchini, ham sifatlovchi aniqlovchini bevosita tobelantirgan hol ishtirok etgan gapni aniqlang.

- A) Yolg'izlikning rutubatli ko'chalarida, Ne-ne oltin fasllarim o'tdi junjikib.  
B) Bir kishi umrining so'ngiga qadar, Yig'di mol-u dunyo, yig'di siym-u zar.  
C) Shuni esingdan chiqarma: aql dilning oltin kalitidir.  
D) Bir yo'l chekkasida yotibman nolon, Chorasiz bo'lsam-da, men ham tirik jon.

**27.** "Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostoni haqidagi noto'g'ri ma'lumotni aniqlang.

- A) Shohdorxon boshqalarning maslahatiga quloq solmay, o'ylamay qaror qabul qiladigan, uzoqni ko'ra olmasligi natijasida ko'plab insonlarning bevaqt o'limiga sabab bo'lgan shoh.  
B) Go'ro'g'lining ota-onasi – Ravshan va Bibi Hilol bolaligida Zargar eliga borib qolib, musofirchilikda voyaga yetishadi.  
C) Go'ro'g'lining tug'ilishi va xalq manfaati yo'lida qahramonlik ko'rsatishida chiltanlar va Xizr alayhissalom katta o'rin tutadi.

D) Parokanda bo'layozgan Taka Yovmit elida Ravshanbekning kelishi bilan tub burilishlar sodir bo'ladi. U el-yurt sha'nini, shavkatini, or-nomusini tiklaydi.

**28.** Mahmud Qoshg'ariy tomonidan yozib qoldirilgan qaysi maqol turkiy xalqlar og'zaki ijodida juda qadim davrlardan boshlab faol iste'molda bo'lib, har qanday fazilatning boshlanishi bilimdir degan ma'noni anglatadi?

- A) Qut belgusi – bilig.  
B) Kim kur bo'lsa, kuvaz bo'lur.  
C) Uma kelsa, qut kelur.  
D) Erdam boshi – til.

**29.** Bahor vasfiga bag'ishlangan birinchi o'zbek g'azali muallifini aniqlang.

- A) Mahmud Qoshg'ariy  
B) Yusuf Xos Hojib  
C) Alisher Navoiy  
D) Nosiruddin Rabg'uziy

**30.** Qaysi gapda hol vazifasida kelgan qaralmish ishtirok etgan?

- A) Meni katta hayotga olib chiqib qo'ygan ustozlarimning zahmatini oqlay oldimmikin?  
B) Mustaqil O'zbekiston davlati erkinlikning dastlabki yillaridanoq o'zbek tilining muhofazasi uchun barcha qonuniy asoslarni yaratdi.  
C) Tilning birinchi ahamiyati shundan iboratki, til tufayli jamiyat a'zolarining har birida hosil bo'lgan bilim ommalashadi.  
D) Til tufayli bilim avloddan avlodga og'zaki va yozma tarzda qoldiriladi, natijada yangi avlod o'tgan avlodning ishini yangidan boshlamasdan, uni davom ettiradi.

